

## **ESKIRGAN SO'ZLARNING ASAR JOZIBADORLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI**

---

*Usarova Aziza Ulmas qizi*

“Tirik jonlarning o‘nib- o‘sishi uchun toza havoning ahamiyati qanchalik katta bo‘lsa, adabiyotimizning ravnaqi uchun chinakam badiiy tilning ahamiyati ham shunchalik zo‘r”[1] Haqiqatdan ham badiiy asar o‘z o‘quvchilarini topishi uchun unda til unsurlaridan foydalana olish ahamiyatlidir. Ijodkor mahoratli va badiiy tafakkuri kuchli bo‘lgandagina u o‘z tili va uslubiga ega bo‘ladi. Adabiyotshunoslar uslub atamasini kerakli deb hisoblasalar, tilshunoslar tilni ko‘proq ahamiyatli deb hisoblaydilar. Mening nazdimda, til orqali uning uslubi namoyon bo‘ladi. Kuzatamizki, Tog‘ay Murod asarlarida takrorlar va dialektik birliklardan foydalanish ustunlik qilsa, Odil Yoqubov asarlarida adabiy normaga amal qilishini ko‘proq kuzatamiz. Ijodkor uslubini belgilashda poetik individuallikni ta‘minlovchi vositalar mavjud bo‘ladikim, ular asarga tosh kabi sayqal berib uni ma‘lum shaklga soladi. Bunday poetik individuallikni ta‘minlovchi vositalar, asosan, leksik sath birliklarida kuzatiladi. Sinonimlar, omonimlar, antonimlar, shevalardan foydalanish, xiazm, takrorlar, oksyumoronlar hamda eskirgan so‘zlar shular jumlasiga kiradi. Poetik individuallikni ta‘minlashda leksik sathning har biridan o‘z o‘rnida foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Biz eskirgan so‘zlar badiiy matnda qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rib chiqsak maqsadga muvofiq bo‘lar edi. bizga yaxshi ma‘lumki, eskirgan so‘zlar ikki xil bo‘ladi: tarixiy so‘zlar va arxaizmlar. "So‘z ifodalaydigan tushuncha hayotda yo‘qolishi yoxud shu tushunchani ifodalaydigan boshqa so‘z paydo bo‘lishi bilan shu xil so‘zlar asta-sekin eskirib, muomala-munosabatdan chiqib boradi. Bunday so‘zlarning kishilarga tushunarli bo‘lishi ham borgan sari qiyinlashib boraveradi, hatto, ba‘zi eski so‘zlarning ma‘nolari butunlay tushunarli bo‘lmay qolishi mumkin. Bunday so‘zlar kitoblarda qo‘llanilganda, ularga, albatta, izoh beriladi. Shu xil so‘zlar ilmda eskirgan so‘zlar deb yuritiladi. Tarixiy so‘zlar — o‘tmishda ma‘lum tushunchalarni ifodalagan, ammo keyinchalik, shu tushunchalarning o‘zi yo‘qolib ketishi bilan ularning ifodasi sifatida iste‘moldan chiqib ketgan so‘zlar. Masalan, yorguchok,, faytun, qozi, qalandar, yasovul, charx, kabi so‘zlar tarixiy so‘zlar. Hozirgi adabiy tilimizda ham, jonli so‘zlashuv nutqida ham bu xil so‘zlar (bunday so‘zlarning sinonimi ham bo‘lmaydi) qo‘llanilmaydi. Tarixiy so‘zlar yo‘q bulib ketgan narsa yoki tushunchalar haqida gap borgandagina foydalaniladi.”[2] tarixiy va arxaik so‘zlar jamiyat hayoti va unda bo‘ladigan iqtisodiy-siyosiy, ma‘naviy-marifiy o‘zgarishlar tufayli vujudga kelgan so‘zlardir. Bunda so‘z va tushuncha o‘rtasidagi bog‘liqlikka asoslanadigan tub mohiyat o‘zgarish mavjud bo‘lishi ham bo‘lmasligi ham mumkin. “Arxaizm (yunon. archaios— qadimgi so‘z) — aktiv so‘zlar qatorida sinonimi mavjud

bo'lgan eski so'zlar" [3]deya ta'rif berilganidan uning aktiv sinonimi mavjudligi anglashiladi.

Epik turga mansub janrlarda qo'llanilish sabablari. Tarixiy romanlarning tili bir tomondan murakkabligi (tarixiy davr tili koloritini o'zida to'liq namoyon etish nuqtai nazaridan), ikkinchi tomondan, lingvoestetik jihatdan ko'p qirraligi bilan ajralib turadi: romanda tarixiy fakt ifodalanayotgan davr tili bilan hozirgi zamon adabiy tili parallel garzda badiiy estetik jihatdan namoyon bo'ladi. Hatto, yozuvchi tasviri va ifodasi, xarakteristikasida ham o'sha davr tili elementlari ustunlik qiladi. Bu esa asar tiliga ko'tarinkilik, jozibadorlik bagishlaydi. Tilning o'sha davr leksik vositalaridan foydalaniladi. [4] Tarixiy, tarixiy-inqilobiy mavzulardagi badiiy asarlar tilida konkret g'oyaviy-badiiy maqsadlarda ana shunday eskirgan so'zlar ham muayyan me'yorda qo'llaniladi, Bunday so'zlar, birinchidan, davr atmosferasini yaratish uchun qo'llaniladi. Tarixiy va arxaik so'zlar o'z zamonasining madaniyati, ijtimoiy hayoti va urf-odatlarini aks ettiradi. Badiiy matnda bu so'zlar ishlatish orqali o'quvchida o'sha davr muhitiga oid tasavvur hosil qilish mumkin. Masalan, Abdulla Qahhor "O'g'ri" hikoyasida ellikboshi, amin, pristav kabi amaldorlik nomlarini qo'llamaganida edi, o'sha davr ruhini bu qadar yorqin ifodalay olmas edi. Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasi" romanida podsho, sulton, arkoni davlat, pir, qalandar, bek, shaxzoda kabi tarixiy so'z va iboralarni mahorat bilan qo'llash orqali xam XV asr ruhini ifodalashga muvaffaq bo'lgan. Shu o'rinda roman bosh qahramoni Mirzo Ulug'bekning bir ichki monologini eslaylik: "Yo tavba! Bu toju taxtda ne sehr, ne sir-asror bor ekankim, unga o'ltirgan har bir kimsa darhol o'zgaradi? Odamiylikni, umri bebaho bir faqir ekanini darhol unutadi? Bu toju-taxt, bu saltanat hech kimsaga vafo qilmasligini yodidan chiqaradi? Nainki shaxzoda, bu taxt hattokim amirul muslimun atalmish Amir Temurga ham vafo qilmaganini tushunmaydi? Ana, go'yo bobosi Amir Temurday gerdayib o'ltiribdi! Bilmaydikim...yo'q;, to'xta, Muhammad Tarag'ay! Nechun sen shaxzodadan ranjiysen? Bu vafosiz toju-taxt, insonlar ustidan hokimlik qilmoq; lazzati uzingni ham akda hushingdan ayirmagan edimu? Shaxzoda yaxshi bo'lsun, yomon bo'lsun — o'z farzanding, o'z pushti kamarindan bo'lgan zurriyoting emasmi?.. Ot tepkisini ot ko'taradur. Uni qarg'ab yomonlik tilagandan yaxshi so'zingni so'zlab, nasihatingni qilganing maqbul emasmi, ey osiy banda?" Ichki monologdagi ostiga chizilgan so'zlar va grammatik shakllarning mag'zini chaqib ko'rsangiz — ko'z oldingizga jonli Ulug'bek shaxsi va uning fojiasi keladi. Bu — XV asr sadosi! Chunonchi, "O'tgan kunlar" romanida arabcha-forscha va eskirgan so'zlar mahorat bilan ishlatilgan — bu so'zlar XV asr o'rtalaridagi o'zbek tili va shu davrning tarixiy ruhini ifoda qilgan.

Biroq tarixiy mavzuning ko'pdan-ko'p talablari qatori, qalamga olingan davr ruhini yorqin namoyon eta olishi uchun muallif tili va personal nutqiga shu koloriti, til bilan bog'liq unsurlari singdirilmas ekan, bu asarning muvaffaqiyati shubha ostida

qoladi. Muayyan xarakter yoki obrazni yaratish uchun arxaik yoki tarixiy soʻzlar qoʻllanilishi mumkin. Masalan, qahramonning tilidan eski soʻzlarni ishlatish uning ma'naviy, intellektual yoki etnik xususiyatlarini koʻrsatishi mumkin. Bu uning ikkinchi oʻziga xosligini namoyon etadi. Muhammad Alining “Ulugʻ saltanat” epopeyasining toʻrtinchi kitobi “Sohibqiron oʻylari” romanida ham sohibqiron tilidan aytilgan bir ogʻiz soʻzga eʼtibor qaratsak: “ – Rum qaysari betob boʻlubdur, - dedi Amir temur. – Afsus.. Xiyla darmonsiz ermish. Darhol tabiblar yubortirdim. Yaxshi taomlar, doru darmonlar buyurtirdim.” Ushbu gapni dodxohga aytar ekan, dushmanini “Rum qaysari” deya erkalashi, uni oʻziga munosib dushman sifatida koʻrishidan dalolatdir. Boyazid yildirim haqida aytilgan u fikrlar “rum” soʻzi, ermish tarixiy shakli va doru soʻzlari orqali ifodalangan boʻlib, Amir Temurning individual xususiyatlarini ochishga xizmat qilmoqda.

Uchinchidan, lugʻaviy rang-baranglikni taʼminlashda ham keng qoʻllaniladi. Bu esa tarixiy va arxaik soʻzlarning ham oʻz sinonimiga ega ekanligini koʻrsatish bilan birga badiiy asar shakl va mazmun qorishiqqligini taʼminlovchi vositaligini ham isbotlaydi. Masalan. Davlatpanoh, Xoqoni said, Aʼlohzrat, Onhazratlari, pushti panoh, valineʼmat singari murojaat shakllaridan foydalangan boʻlsa, baʼzi oʻrinlarda hozirga zamonda ishlatiladigan soʻzlar bilan ifodalagan. Dorulmulk- uy, dorilfano - foniy dunyo soʻzlari orqali badiiy boʻyoqdorlikni taʼminlagan. Toʻrtinchidan, til boyligini saqlash uchun qoʻllaniladi. Badiiy adabiyotda tarixiy va arxaik soʻzlarni ishlatish oʻsha davrlar tilining saqlanishiga yordam beradi. Bu soʻzlar tilni oʻrganishda va uning tarixiy oʻzgarishini tushunishda muhim manba boʻlishi mumkin. Shu tarzda, badiiy matnlar tarixiy va arxaik soʻzlarni ishlatish orqali nafaqat mazmunni boyitadi, balki oʻquvchida chuqurroq hissiy va intellektual tajriba uygʻotadi. Arxaik soʻzlar tarixiy voqea, hodisalarni real tasvirlashda stilistik vosita boʻlib, ular badiiy asarlarda, feletonlarda baʼzi ijtimoiy-siyosiy uslubda yozilgan tanqidiy maqolalarda nutqqa kinoya, piching, mazax-masxara ruhi va hajv ottenkasini berish uchun ham ishlatiladi. Yuqorida taʼkidlanganidek, arxaizmlarning badiiy asar tiliga tantanavor, koʻtarinki ruh berish maqsadida qoʻllanishi badiiy asar tiliga alohida ruh bagʻishlaydi. B.Umurqulov arxaizmlarning shu xususiyatlariga asosanib ularni prozadan koʻra poeziyada koʻproq qoʻllanishini eʼtirof etadi.[6] yuqprida keltirilgan sabablar faqatgina nasir asalarga tegishli boʻlib, nazmda esa tarixiy va arxaik shakllar boshqa bir sabablarga koʻra qoʻllaniladi. Avvalo, sheʼrning ohangdorligini taʼminlash uchun qoʻllaniladi. Abduvali Qutbiddin ijodida buni yaqqol kuzatamiz:

Faromush bogʻlarda sollanib mahzun,  
Zarrin sarpolarda, davlati fuzun,  
Qalbimga ataydi non hamda tuzin,  
Yo jonim muhabbat,  
Sim-sim-ey, sim-sim,

Mabodo aldasam, qo'llarim sinsin. [7,26]

“Nayson” she'riy to'plamidan olingan ushbu parchada mahzun, fuzun, tuzin va sinsin so'zlari qofiyalanib, she'rning musiqiyligini ta'minlamoqda. Bu yerda ham tarixiy shakllar, ham tarixiy so'zlardan foydalanib she'rning estetik qiymatini oshirgan. “Fuzun- forscha, afzun so'zining birlik shakli, ortib, ziyoda bo'lib boradigan, ko'p ortiq” ma'nosini anglatadi.[9] Tuzin so'zida esa tuzi+ni shakli bor. Ya'ni tushum kelishigining “n” shakli qo'llanilmoqda.

Afsus, quvonchlarim o'spirin yoshda,  
Eng gulgun faslda hordi, qaridi.  
Minba'd ko'tarmadim hech kimni boshda,  
Garchand bunday imkon menda bor edi.[8,8]

Chori Avaz ijodidan keltirilgan to'rt misrada ham minba'd arxaik so'zi keltirilgan. “Minba'd- 1. esk. kt. Bundan keyin. Bir kun oqsoch xotin Rahimjon aka degani uchun domladan bir tarsaki yedi. Domla: Minba'd, begim, degin— dedi.( A. Qahhor, Sarob) 2. Hech, sira, aslo. Men endi qilmayman, minba'd qilmayman. (A. Muxtor, Tug'ilish)” [9]she'rda minba'd aslo, hech, sira ma'nolarida kelmoqda. Ushbu tarixiy so'zning qo'llanilishi ham unga estetik zavq bergan.

Agar eskirgan so'zlar ko'payib ketsa, hozirgi zamon kitobxoni uchun zerikarli bo'ladi, aksincha asar voqealari sodir bo'layotgan davr tili namunalari bo'lmasa ham ishonarsiz bo'ladi. O'rtadagi me'yorni ijodkor mahorat ila qo'llay bilishi zarur. Eskirgan so'zlar so'zlashuv uslubida o'z o'rmini varvarizmlarga bo'shatib bersada, uning qadri badiiy asar uchun juda katta ahamiyatga egadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qodirov P. Badiiy til muammolari // Inqilob va adabiyot, - Toshkent: Fan, 1977. 140-6.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –Toshkent, “O'zbekiston”, 2002. – B.181-183.)
3. Barno Hasanova. Tarixiy hikoya tilining ayrim o'ziga xos xususiyatlari. O'zbek tili va adabiyoti.2005.N6, B 84)
4. Qurbonov T. Tarixiy badiiy asar va davr tili masalalari.(Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar. Bobur” romani materiallari asosida), “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent - 2006
6. Muxammadjonova G.80-yillar oxiri 90-yillar boshlari O'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi(Avtoreferat)-Toshkent , 2004
7. Абдували Қутбиддин. Найсон. - Тошкент,1988
8. Чори Аваз. Тортилган камон.-Самарқанд, 1990
7. <https://imlo.uz>
8. <https://izoh.uz>